

**O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish
agentligi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha
o'qitishni tashkil etish yuzasidan**

USLUBIY KO'RSATMALAR

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar (keyingi o'rinlarda – Uslubiy ko'rsatmalar deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-6013-son Farmoni va boshqa qonun hujjatlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining (keyingi o'rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) ichki normativ hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Uslubiy ko'rsatmalar Agentlik xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarida ichki idoraviy o'qitishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni belgilaydi.

3. Mazkur Uslubiy ko'rsatmalar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishda ularni sodir etishga olib kelayotgan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirishga, ularni qonun hujjatlariga hamda Agentlikning ichki hujjatlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

4. Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturlari va materiallari ushbu Uslubiy ko'rsatmalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

5. Agentlikning Kadrlar bo'limi xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'adi.

**2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha
o'qitishning asosiy tamoyillari**

6. Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish quyidagi tamoyillarga tayanadi:

xolislik – Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish, Agentlikning mansabdor shaxslari tomonidan o'qitish to'g'risida qabul qilinadigan

subyektiv fikrlarning ta'sir qilishiga yo'l qo'yilmagan holda beg'araz amalga oshiriladi;

ilmiylik – korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish sohasida o'quv materiallarini tayyorlashga mas'ul bo'lgan shaxslar ularni ilmiy faktlar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi;

amaliylik – Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishning shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo'lishi, haqiqiy vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek, xodimlar tomonidan olingan materiallarni tushunishi darajasi va muayyan amaliy vazifalarni hal qilish uchun qo'llay olish imkoniyatini, keyinchalik nazoratini qamrab olishi zarur;

ketma-ketlik va tizimlilik – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini tayyorlash hamda Agentlik xodimlarini o'qitish tartibi ketma-ket tarzda, tuzilmaviy-mantiqiy tizim shaklida amalga oshiriladi. O'qitish umumiy tushunchalar va hodisalardan yakka tartibga, soddadan murakkabga, bazaviydan rivojlanganga va h.k. asosida amalga oshiriladi;

barchaga mo'ljallanganlik – korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari Agentlik xodimlarining mavjud bilimlari va ko'nikmalarini hisobga olish, barcha xodimlarga tushunarli bo'lgan o'quv materiallarini shakllantirish asosida amalga oshiriladi;

differensial yondashuv – Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari muayyan funksiyalar/faoliyat yo'nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalarini inobatga oladi. Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar qo'shimcha maxsus tarzda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitiladi;

o'qitish ishlarining usullari va shakllarini doimiy asosda takomillashtirish – Agentlik o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek, xodimlarning bilimlarini o'zlashtirganliklarini tekshirishda texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalanishga intiladi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishning ustuvor vazifalari

7. O'qitish shakli va usullarini belgilash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini shakllantirishda Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishga mas'ul bo'lgan shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga asoslanishlari lozim:

korrupsiyaning mohiyati, uning shakllari, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'lishi xususiyatlari, ushbu voqelikning sabablari, ijtimoiy xavfi va zararli oqibatlari haqida umumiy tasavvurni shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xulq-atvorning ma'naviy, axloqiy qadriyatlariga qat'iy va so'zsiz rioya qilinishiga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;

xodimlarni Agentlikda amal qiladigan, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tamoyillar, talablar va tartib-taomillar bilan tanishtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuz berishiga ko'maklashuvchi holatlarni aniqlash va oldini olish, korrupsiyaviy xulq-atvorga nisbatan murosasizlikni namoyish etish qobiliyatini shakllantirish.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarini shakllantirish va o'tkazishga mas'ul shaxslar

8. Agentlikning Shaxsiy xafvsizlik bo'limi (keyingi o'rinlarda – Shaxsiy xafvsizlik bo'limi) va Kadrlar bo'limi Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarini shakllantirish va o'tkazishga mas'ul bo'limlar hisoblanadi.

Kadrlar bo'limi Shaxsiy xafvsizlik bo'limi bilan birgalikda Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv rejalarini tayyorlaydi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini ishlab chiqadi, o'qitish ishlarini muvofiqlashtiradi, shuningdek, Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarining tartib-taomillarini monitoring va nazorat qiladi.

9. Kadrlar bo'limi va Shaxsiy xafvsizlik bo'limi Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi o'qitish rejalarini tayyorlash va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini ishlab chiqishda boshqa o'quv va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

10. Kadrlar bo'limi va Shaxsiy xafvsizlik bo'limi o'quv materiallarini tayyorlashga va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarini xalqaro yoki tegishli tajribaga ega bo'lgan mahalliy tashkilotlar bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzishni tashkil etish orqali uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin.

5-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish muddatlari va davriyligi

11. Agentlik xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda Agentlikning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan majburiy tarzda malaka oshirish davomida ta'lim olganligi hamda qo'shma konferensiyalar, yig'ilishlar, simpoziumlar o'tkazilishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

13. Agentlikning xodimlari quyidagi hollarda bir yilda bir martadan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishda ishtirok etadi:

agar xodim korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimni egallab turgan bo'lsa;

lavozimga tayinlash va rotatsiya qilinishida, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatiga kirsam;

Agentlikda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik aniqlanganda yoki bajarilayotgan funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi oshganda;

Agentlik direktori, Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari, direktor o'rinbosarlari – boshqarma boshliqlarining topshirig'iga ko'ra.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish kunduzgi shaklda yoki masofaviy o'qitish elektron platformasidan foydalangan holda xodimlarning zaruriy tayyorgarligi va bilimlarini oshirish hamda nazorat qilish orqali o'tkazilishi mumkin. Agentlikning barcha xodimlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishda ishtirok etishi uchun ushbu masofaviy o'qitish elektron platformasiga kirish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak.

15. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish Agentlik direktori tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

16. Agentlikka ishga qabul qilingan xodimlar ishga qabul qilingan paytdan boshlab ikki hafta muddatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishlarda ishtirok etishi hamda Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki hujjatlari bilan tanishtirilishi lozim.

6-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish turlari va shakllari

17. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish;

korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish;

Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlarini joriy etishga mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus o'qishlarni tashkil etish;

Bundan tashqari Agentlik tomonidan xorijiy hamkorlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Agentlik xodimlari uchun xalqaro tashkilotlar va yetakchi xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish organlarida stajerovka o'tash va

tajriba almashish grafigi asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus o'qishlarni tashkil etish.

18. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish Agentlikning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Agentlikning ichki hujjatlarida, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganda harakat qilish qoidalari va tartibi, shuningdek, ularni sodir etganlik uchun javobgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni olishga qaratiladi.

19. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish natijalariga ko'ra Agentlik xodimlari o'rganilgan materiallarni o'zlashtirganligi hamda olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishlarini tekshirishga qaratilgan test sinovlarini topshirishlari lozim.

20. Agentlik xodimlari kamida 90% savolga to'g'ri javob bersa, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitishni mavaffaqiyatli tamomlagan hisoblanadi.

21. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitishdan tashqari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va kamaytirish usullari va turlari;

korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik maqsadida yuqori lavozimlarda korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari va turlarini.

22. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitishdan qat'i nazar amalga oshiriladi.

23. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo'lgan lavozimlar ro'yxati Shaxsiy xafvsizlik bo'limi tomonidan Agentlik direktori tomonidan tasdiqlangan Agentlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

24. Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etishga mas'ul bo'lgan xodimlar uchun o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ekspertlarni jalb qilgan holda malakasini oshirish, shuningdek, ixtisoslashtirilgan vakolatli uchinchi shaxslar tomonidan tashkil etiladigan treninglarda qatnashish shaklida bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

25. Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashishni tashkil etishga mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi qonunchiligidagi o'zgarishlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarini qurish va davlat organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishini o'rganishni qamrab olishi lozim.

7-bob. Korrupsiyaga qarshi o'quv dasturi

26. Agentlikning xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda yangi bilimlarni o'rgatishi yoki:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni, Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlarini, jumladan, o'rnatilgan taqiqlar, cheklovlar, majburiyatlar va ruxsatnomalar, xizmat xulq-atvoriga qo'yiladigan talablar, korrupsiyaviy tavsifdagi huquqbuzarliklar aniqlanganda Agentlik xodimlari harakatlarining ketma-ketligi bilan bog'liq bilimlar;

Agentlik faoliyatining turli yo'nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyatini, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan choralarni amaliyotda qo'llash mahorati bo'yicha olingan bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini takrorlashni ta'minlashi zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv materiallariga mazkur Uslubiy ko'rsatmalarning ilovasida ko'rsatilgan namunaviy mavzular kiritilishi mumkin.

8-bob. O'qitish va hujjatlarni saqlash intizomini nazorat qilish

27. Kadrlar bo'limi Agentlik xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturlari o'tganligi to'g'risida ma'lumotlarni yig'adi va har chorakda Shaxsiy xafvsizlik bo'limiga taqdim etadi.

28. Agar xodim belgilangan muddat ichida o'qitish yoki test sinovlari natijalaridan o'tmagan taqdirda, Kadrlar bo'limi xodimga nisbatan tegishli choralar ko'rish uchun tegishli tarkibiy tuzilma rahbariga xabar beradi.

29. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturlari jadvallari, iqtirokchilar ro'yxatlari, test natijalari, o'qishni tugatganlikni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Kadrlar bo'limida saqlanishi lozim.

30. Agentlik tizimidan tashqarida xodimlarning o'qitilganligi to'g'risidagi sertifikatlarining / boshqa tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari xodimlarning shaxsiy yig'majildlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan muddatlarda saqlash uchun Kadrlar bo'limiga topshiriladi.

9-bob. Qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish kiritish tartibi

31. Mazkur Uslubiy ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda Agentlikning ichki normativ-huquqiy hujjatlari o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalarga ilova

**O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlarini
korrupsiyaga qarshi kurashishga o'qitish bo'yicha
NAMUNAVIY O'QUV DASTURI**

T/r	Mavzu	Mavzu tarkibi
1.	Korrupsiyaning tabiati	Korrupsiya tushunchasi, shakllari va sabablari; Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida; Jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yaxshi natijaga erishayotgan davlatlar qonunchiligi; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hujjatlar va standartlar; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilik; Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki hujjatlari.
3.	Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish usullari	Korrupsiyaga qarshi kurashish elementlari, shuningdek, Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim choralarning tahlili; Agentlikda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va hal qilish; Agentlik xodimlarining xulq-atvor qoidalari; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xodimlar va tarkibiy tuzilmalarning majburiyatlari va vakolatlari; Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik xavfi aniqlanganda amalga oshiriladigan harakatlar.
4.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va odatiy korrupsiyaviy huquqbuzarliklar	Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklarning asosiy turlari; Davlat mulki va budjet mablag'laridan foydalanish bo'yicha tanlovga oid tartib-taomillarning samaradorligi; Agentlikning xaridlarini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Budjet mablag'larining sarflanishi, investitsiya loyihalarining ijrosi va boshqa masalalarni

		<p>o'rganish, tekshiruvlar o'tkazish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Qonun loyihalari hamda Agentlikning ichki hujjatlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Agentlik faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p>
5.	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlik	<p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun intizomiy javobgarlik;</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik;</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida sud amaliyoti.</p>
6.	Korrupsiyaga qarshi fuqarolik jamiyati	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida jamoatchilik nazorati;</p> <p>Huquqiy negilizmni bartaraf etish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining roli;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi ijtimoiy fikr va xulq-atvorni shakllantirish;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi.</p>
7.	Korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorlik	<p>Xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tuzilmalari;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, ularning vazifa va vakolatlari.</p>